

**FarDU, Filologiya fakulteti
adabiyotshunoslik kafedrasini
o'qituvchisi G'ulomov Doniyorbek
Dilshodjon o'g'li taqrizi ostida**

**Karimova Dilso'z Rustam qizi
FarDU, Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Telefon raqami: +998 90 583 03 11
Elektron pochta:
dilsozkarimova0311@gmail.com**

ADABIYOTSHUNOSLIKDA SYUJET MASALASI

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunoslarning badiiy syujet haqida fikrlari, syujetga bergan ta'riflar, shuningdek, ularning badiiy syujet xususidagi integral (o'xshash) va differensial (farqli) ayrim qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy syujet, badiiy syujet ta'rifi, voqealar tizmasi, syujet birligi masalasi.

THE ISSUE OF PLOT IN LITERARY STUDIES

Abstract: The article describes the opinions of literary experts about the plot, their definitions, as well as some of their integral (similar) and differential (different) views on the plot.

Key words: Artistic plot, definition of artistic plot, sequence of events, problem of plot unity.

ПРОБЛЕМА СЮЖЕТА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация: В статье изложены мнения литературоведов о сюжете, их определения, а также некоторые их целостные (сходные) и дифференциальные (разные) взгляды на сюжет.

Ключевые слова: Художественный сюжет, определение художественного сюжета, последовательность событий, проблема сюжетного единства.

Badiiy asar poetikasida syujet muhim ahamiyatga ega. Syujet hayotni realistik tasvirlovchi, zarur g'oyani ifoda etuvchi estetik kategoriya demakdir.

Syujet deyilganda ko'pincha "asardagi voqealar tizmasi" tushuniladi, ya'ni badiiy asarlarning ko'pchiligida yaxlit hayot manzarasi bilan bog'liqlikda biron muhim ijtimoiy ziddiyat va unda namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixi badiiy tarzda ifodalanadi.

Xo'sh, aslida syujet nima? Syujet xususida adabiyotshunos olimlarning fikri qanday?

Syujet atamasi asli fransuzcha "sujet" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "predmet", "asosga qo'yilgan narsa" degan ma'nolarni anglatadi[1, 288- b]. Badiiy syujet genezesi Aristotelning "Poetika" ("Poeziya san'ati haqida") asariga borib taqaladi. Aristotelning ta'biri bilan aytganda, syujet bu "voqealar oqimi", "go'zallik hajmi va tartibi", "kutilmagan holatlar va ularning ochilishidir", "bilmaslikdan bilishga tomon, baxtiyorlik baxtsizlikka mahkum etilgan shaxslarning do'stlik yoki dushmanlik tomon o'tishidir"[3, 17-37-b]. Syujetga nisbatan klassik ta'rifni esa M.Gorkiy bergan. U syujetni "...odamlarning o'zaro aloqalari, qarama-qarshiliklari, simpatiya (yoqtirish) va antisimpatiyalar (yoqtirmaslik), umuman, kishilar o'rtasidagi munosabatlar – u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir" deya ta'riflaydi[4, 663-b]. Demak, yuqoridagi syujetga berilgan ta'riflarga asoslanadigan bo'lsak, syujet bu asar qahramonlari hayotida yuz bergan voqealar va bu jarayonda shakllangan aloqalar, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'zgarishlar va to'qnashuvlardir.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim A.Rahimov yuqorida aytilgan ta'riflarni to'g'ri, "lekin ularda barcha adabiy tur va janrlarning xususiyatlari hisobga olingan emas"[5, 16-b], – deydi.

Adabiyotshunos o'zining "Roman san'ati" kitobida "Xo'sh, syujetning o'zi nima?" degan savoliga javob tariqasida syujetni quyidagicha talqin qiladi: "Syujet bu badiiy asardagi voqealar va tuyg'ular oqimida, xarakterlar va ixtiloflarning rivojlanishi tarixi, tasvirlanayotgan hodisalarga yozuvchi munosabatining to'la ochilishidir"[5, 16- b]

Zero, syujet badiiy adabiyotning hamma turida bor, lekin har bir janrning syujeti o'ziga xos. Hatto mayda lirik she'rlarda ham ma'lum bir fikr oqimi mavjud bo'ladi va shu fikr oqimi she'rning syujetini tashkil qiladi. "Fikr oqimi ko'zga tashlanadigan, fikrni ifoda qilishda situatsiyalar yaratilgan"[6, 3- b] she'rlar ham mavjud. Bunday turdagi she'rlarda, odatda, obrazlar ham qatnashadi va ular "syujetli she'rlar"[6, 3-b] deb ataladi. Adabiyotshunos olim T.Boboyev fikrlariga asoslanib aytadigan bo'lsak, lirik she'rlarda muayyan fikr-tuyg'ular oqimi lirik manzara aks ettiradi. Misol tariqasida, Cho'lponning "O'zbekim" she'rini keltirish mumkin. T.Boboyev shu o'rinda yana bir turdagi she'rlar haqida ham gapirib o'tadiki, ularda fikr-tuyg'ular oqimi ko'zga yaqqol tashlanadi, "ularda voqea-vaziyat yaratiladi", "lirik qahramondan tashqari personajlar ham qatnashadi"[7, 108-b]. Jumladan, A.Oripovning "Hangoma" she'ri bunga misol bo'la oladi. T.Boboyev bunday she'rlarni ilmda "voqeeband she'rlar"[7, 108-b] yoki ba'zan shartli ravishda "syujetli she'rlar"[7, 108-b] deb ham yuritilishini aytib o'tgan. Umuman olganda, syujet barcha adabiy asarlarda, jumladan, she'rda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Lekin epik va dramatik asarlarda uchraydigan syujet o'zining mukammal va murakkabligi jihatidan lirik turdagi syujetdan farqlanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy syujet masalasi bo'yicha Gottsi, Shiller, Polti, Terry Iglton, V.Belinskiy, L.I.Timofeyev, M.Baxtin, A.Veselovskiy, Ye.Dobin, F.M.Golovechenko[7, 111-b] kabi qator xorijiy adabiyotshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Bundan tashqari, syujet atamasi o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan ham qiyosiy o'rganilgan bo'lib, jumladan, adabiyotshunos olim T.Boboyev syujetni "adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmuyi, kengroq ma'noda, konkret voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg'ular oqimi", "syujet fikr, g'oya, asarning konkret mavzuidan tug'iladi"[7, 109-b] deya izohlaydi va ayni paytda syujetni hayot materialini aks ettiruvchi va poetik g'oyani ifoda etuvchi tasvir vositalaridan biri deb hisoblaydi. Akademik I.Sulton esa syujetni "badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o'zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari, umuman kishilar orasidagi munosabatlar u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o'sishi, tashkil topib borishidir"[9, 108-b], – deydi va T.Boboyev qarashlarida ifoda etilmagan yana bir fikr "asar mazmuniga asos bo'lgan kichik yoki katta voqea"[9, 108-b]ni ham aytib o'tadi. Zero, adabiyotning kichik janri hisoblanmish hikoyada kichik bir voqea va uning tafsiloti tasvirlansa (A.Qahhor "Dahshat"), yirik janrlar sirasiga kiruvchi qissa, romanlarda hikoyalardan farqli ravishda nisbatan ko'p tarmoqli syujet namoyon bo'ladi (A.Qahhor "Sinchalak ", A.Qodiriy "O'tkan kunlar"). X.Umurov syujet deganda "asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to'qnashuvlar, o'sish-o'zgarishlar"[10, 122-b]ni keltirib o'tadi. A.Ulug'ov fikricha syujet bu – "asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi"[11, 76-b]dir. E.Xudoyberdiyev esa "syujet deganda asardagi voqealar tizmasi tushuniladi", "syujetli asarlarning ko'pchiligida yaxlit hayot manzarasi bilan bog'liq holda biron muhim ijtimoiy ziddiyat badiiy tadqiq etiladi"[12, 69- b], – deydi. Chunki syujetda ijtimoiy ziddiyatning rivojlanishda aks ettirilishi va uning qanday hal bo'lishi va ko'rsatilishi katta ahamiyatga ega va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotning tamoyillari ochiladi. D.Quronov esa "syujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi"[13, 107-b], – deya syujet xususidagi ta'rifini yakunlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, T.Boboyev, I.Sulton, X.Umurov, A.Ulug'ov va E.Xudoyberdiyevlar syujetlilik barcha turdagi adabiy asarlarda uchrashini ilgari surishgan. Ammo D.Quronov syujetlilik badiiy

adabiyotning xos xususiyatlaridan biri ekanligini va bu jihatdan barcha badiiy tur va janrdagi asarlarda syujet mavjudligini aytishiga qaramay, boshqalardan farqli ravishda “har bir turda, janrda syujet o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, aksariyat lirik she‘rlarda voqealar tizimi mavjud emas, biroq ularda o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji kuzatiladiki, bu ularning syujetini tashkil qiladi. Shuningdek, ba‘zan kichik hajmli hikoya va novellalardagi syujet ham “voqealar tizimi” degan ta‘rifga muvofiq kelmaydi: bunda bir hayotiy holat ichidagi o‘sinh, rivojlanish kuzatiladi”[13, 108-b], – deya o‘z fikrlarini izohlaydi va bunga misol tariqasida Cho‘lponning “Taraqqiy” nomli she‘rini va A.Qahorning “Bemor” nomli hikoyasini keltirib o‘tadi. Olim bu fikrlari orqali syujet barcha adabiy turlarga xos emas degan g‘oyani ilgari surmayapti. Zero, lirik asarlardagi ichki kechinma, his-tuyg‘ular epik va dramatik asarlardagi kabi bir-biriga bog‘liq holda kechishini nazarda tutadi. Shuningdek V.Xalizev ham “syujetni adabiy asarda tasvirlangan voqealar silsilasi”[14, 109-b], – deydi, ya‘ni syujetni qahramonlarning makon va zamonda o‘zgarishlarida, bir-biri bilan almashinuvchi holat va sharoitlarda kechuvchi hayoti sifatida keltirib o‘tadi. Uning fikriga asoslanadigan bo‘lsak, syujet epik, dramatik va liro-epik janrlarning uyushtiruvchi asosidir”[14, 109-b]. Olim shuningdek, syujetni lirik turga ham taalluqli ekanligini aytib o‘tadi. Bunda V.Xalizev ham syujetga voqealar tizimi sifatida yondashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, syujet hayot materialini aks ettiruvchi tasvir vositasi va badiiy adabiyotning ajralmas qismidir. Badiiy adabiyotda asarning qiymati to‘la darajada syujetga bog‘liq ekan, syujet xususidagi nazariy qarashlarni to‘la anglash, undan ko‘zlangan maqsadni tushunish, yetarlicha tahlil qila olish uchun adabiyotshunoslarning syujet haqida bildirgan fikrlariga, u xususidagi mulohazalariga bevosita e‘tibor qaratiladi. Har bir nazariyotchi olimning badiiy syujet va uning ta‘rifi masalasida o‘z qarashlari mavjud. Olimlar tomonidan badiiy syujet va unga berilgan ta‘riflar, fikrlar o‘rtasida biri ikkinchisidan tamoman farqlanuvchi hamda bir-birini inkor etuvchi holatlar kam, aksincha, har bir olimning qarashlari bir-birini mazmunan to‘ldiradi va syujetga berilgan quyidagicha mukammal ta‘rifni yaratadi: “Badiiy asar syujeti – badiiy asarda vujudga kelgan yaxlit hayot oqimi, shu jarayonda insonlarda paydo bo‘ladigan munosabatlar va rivojlanib boradigan o‘zaro qarama-qarshiliklar, ixtiloflarning silsilasi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати – Тошкент: Академнашр, 2013. 288-b.
2. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/genezis>
3. Аристотел. Поетика. Тошкент, 1980. 17-37-б.
4. Горкий М. О литературе. Москва: ГИХЛ, 1953. С.663.
5. Раҳимов А. Роман санъати – Фарғона: Фарғона, 2015. 16-б.
6. Қўшжонов М. Ҳаёт ва нафосат – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат, 1970. 3- б.
7. Бобойев Т. Адабиёшунослик асослари – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 108-109-111-б.
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 108-b.
9. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. 122-b.
10. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2017. 76-b.
11. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. 69-б.
12. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. 108-b.
13. Хализев В. Е. Теория литературы – Москва: Высшая школа, 2002. С. 249.